

O'ZBEK FOLKLOR-ETNOGRAFIK SAN'ATI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI

*Adhamova Munisa Paxriddinovna,
Toshkent shahar Madaniyat boshqarmasi
Madaniy faoliyatini rivojlantirish va xalq
ijodiyoti sho'basini bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek folklori san'atining o'ziga xos xususiyatlari, yo'nalishlari, rivojlanish tamoyillari va bugungi kundagi dolzarbligi to'g'risida qisqacha fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlari: folklor, yalla, lapar, mehnat qo'shiqlari, ashula, cholg'u ijrochiligi, kompozitorlik va bastakorlik ijodiyoti, estrada san'ati.

Аннотация: В данной статье приводится краткий обзор особенностей, направлений, тенденций развития и актуальности узбекского фольклорного искусства.

Ключевые слова: фольклор, ялла, лапар, трудовые песни, ашула, инструментальное исполнительство, композиторское и бастакоровское творчество, эстрадное искусство.

Annotation: This article briefly describes the features, directions, development trends and relevance of modern Uzbek folklore art.

Keywords: folklore, yalla, lapar, work singing, instrumental performance, composing and bastakor's creativity, art of estrade.

O'zbek folklori musiqasi juda boy tarixga egadir. Ota-bobolarimiz, xalqimiz asrlar davomida biz ajdodlarga boy madaniy meros qoldirgan. Asrlar davomida respublikamizning turli vohalarida turmush tarzi, yashash sharoiti, iqlimidan kelib chiqib rang-barang folklor qo'shiqlari yaratilgan, cholg'u musiqalari vujudga kelgan, cholg'u asboblari yasalgan.

O'zbek folklori musiqasi turli janrlardan iborat. Unda o'zbek xalqi madaniyati, urf-odatlar, o'y-hayollari, orzu-havaslari, kechinmalari kuylanadi. Folklor musiqasi xalq orasida keng tarqalgan.

Folklor musiqasi haqida gapirganda avvalombor o'zbek xalq madaniyatida mahalliy uslublar mavjudligini aytib o'tish kerak. Ular ma'lum hududlar nomi bilan ataladi. O'zbekiston hududida to'rtta mahalliy uslub bo'lib, ular Farg'ona-Toshkent, Qashqadaryo-Surxondaryo, Buxoro-Samarqand va Xorazm mahalliy uslublari deb nomlanadi. Ular qadimiyligi, xalqining madaniyati va urf-odatlarining xilma-xilligi, bir-biriga o'xshamagan xususiyatlari, ohangining rang-barangligi, usulidagi farqlanishlar bilan ajralib turadi. Folklor musiqasida xalq qo'shiqlari katta o'rin tutadi.

Qo'shiqlar turli xarakterga ega bo'lib, ularda xalqning kechinmalari, quvonchi va iztirobi, turmush tarzi kuylanadi.

O'zbek xalq qo'shiqchiligi rang-barang kuy-ohanglarga, ritmik ko'rinishlarga ega. Folklor musiqasi orasida bolalar folklori ham mavjud, mehnat qo'shiqlari, maishiy qo'shiqlar, marosim qo'shiqlari, mavsum-marosim qo'shiqlari, allalar, yig'i qo'shiqlari ham bor.

Mehnat qo'shiqlari xalqning kundalik hayotda qiladigan ishlari bilan, mehnat faoliyatining turi bilan bog'liq bo'lgan. Ularni xalqning o'zi yaratgan. Olib borayotgan faoliyati bilan bog'liq holda kuyini ham, so'zlarini ham o'zi to'qigan. Qadimda qishloqlarda chorvachilik, dehqonchilik, bog'bonchilik bilan, shaharlarda esa kosibchilik, hunarmandlik bilan bog'liq qo'shiqlar kuylangan. Xalq orasida xirgoyi qilinadigan kuy - qo'shiqlar o'zining melodik tuzilishining soddaligi, oddiyligi va yodda tez qolishi bilan ajralib turadi.

Mehnat qo'shiqlari odatda mavsum bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, hosilni yig'ish davrida yig'im - terim qo'shiqlari kuylangan. Bahorda dalada ish boshlanganda "Hashar" qo'shig'i kuylangan, ho'kiz bilan yer haydaganda "Xo'sh-xo'sh" qo'shig'i kuylangan, paxtadan ip to'qiyotganda ayollar "Charx" qo'shig'ini kuylaganlar. Mavsum - marosim qo'shiqlariga Navro'z qo'shiqlari kirgan. Ularda yangi yilning boshlanishi, yangi hayot, yasharish, tabiat uyg'onishi, daraxtlarning gullashi kuylangan. Bolalar tomonidan "Laylak keldi", "Boychechak", "Oq terakmi ko'k terak", "Yomg'ir yog'aloq", "Chitti gul", "Chori chambar", "Chuchvara qaynaydi" kabi turli mavzulardagi qo'shiqlar ijro etilgan.

Toshkent - Farg'ona mahalliy uslubida yalla va laparlar, Yor-yorlar, terma qo'shiqlar, bolalar qo'shiqlari keng tarqalgan. Laparlar odatda duet ko'rinishida ijro tilgan. Ular hazil mutoyiba shaklida kuylangan. Bunga "Qorasoch", "Bilaguzuk", "Ayajon" laparlarini misol keltirishimiz mumkin.

Buxoro-Samarqand vohasida o'zbek hamda tojik milliy kuylari, qo'shiqlari va raqslari keng ommalashgan. Ayniqsa Buxoroda xalq orasida "Mavrigi" va "Buxorcha" nomli qo'shiq janrlari namunalari keng tarqalgan. Shu vohada ijro etilgan "Qayroq o'yini", "Beshqarsak" turkumlari, to'ylarda doyra jo'rligida aytiladigan "Yor-yor"lar va "Salomnoma"lar ham xalq folklorining yorqin namunalaridir. O'lan aytish, kelin-salom, kuyov-salom, aytishuvlar barcha vohada o'ziga xos ko'rinishda ijro etiladi.

Xorazm vohasi musiqa madaniyati o'zining jozibadorligi, jo'shqinligi bilan ajralib turadi. Xalq orasida mashhur bo'lgan "Ratalla", "Lazgi" janrlari bu voha madaniyatini yorqin namoyon etadigan musiqa namunalaridir. Shu bilan bir qatorda Xorazm xalqining tarixiy madaniyatini, udumlarini, urf-odatlarini ko'rsatib beruvchi alohida janrlar ham mavjud. Suvora, dostonchilik, xalfachilik, raqs kuylarini bunga misol keltirishimiz mumkin. Xalfachilik san'ati Xorazm ayollari ijodini namoyon etadi.

“Dig’ajon”, “Guli layli”, “Chipradalli”, “Og’a doram” qo’shiqlari xalfalar tomonidan aytilgan. Doston aytishda ham Xorazm vohasi o‘ziga xos qirralarga ega.

Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida yashagan xalq asosan chorvachilik bilan shug’ullangan. Bu yerda dehqonchilik, bog’bonchilik, hunarmandlik bilan juda kam shug’ullanilgan. Shuning uchun bu vohada terma hamda ommaviy qo’shiqlar katta o‘rin tutgan.

Folklor janrlari orasida doston alohida ajralib turadi. Bu janr asrlar davomida avlod-dan-avlodga, ustozdan shogirdga og’zaki an’analari asosida o’tib kelgan. Doston janri Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida keng tarqalgan. Shu bilan bir qatorda Toshkent-Farg’ona va Xorazm vohalarida ham alohida o‘rin tutadi. Dostonlar qahramonona, lirik va tarixiy turlarga bo‘linadi. Uni xalq orasida, xalq bayramlarida, sayillarda baxshilar va hofizlar do‘mbira yoki dutor jo‘rligida kuylashgan. Xorazmda doston ko‘p hollarda bo‘lamon, garmon jo‘rligida aytilgan. Bugungi kunda ham doston janri asosan Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida, Xorazm va Qoraqalpog’istonda baxshilar tomonidan ijro etiladi. Dostonlar orasida “Alpomish”, “Rustamu doston”, “Go‘ro‘g‘li”, “G‘arib va Shoxsanam” dostonlarini tilga olishimiz mumkin.

Folklor musiqasi ashula va cholg‘u ijrochiligiga bo‘linadi. Xalq madaniy merosida cholg‘ular, cholg‘u musiqa madaniyati ham o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Har bir vohada o‘zini xarakterlovchi cholg‘ulari mavjud bo‘lgan. Masalan, bo‘lamon yoki garmon Xorazm vohasiga xos, Xorazm dutori Farg’ona-Toshkent dutoridan o‘zining ko‘rinishi, akustik xususiyatlari bilan ajralib turadi va hokazo.

Folklor musiqasi og’zaki an’adagi va kasbiy musiqaga bo‘linadi. Bu yerda biz har bir vohaga xos janrlarni aytib o‘tishimiz mumkin. Masalan, Farg’ona-Toshkent maqom yo‘llari, Buxoro-Samarqand “Shashmaqomi”, Xorazm duvozdamqomi, Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi va boshqalar. Kasbiy musiqa ijrochiligida ustoz-shogird an’analari asosida asrdan-asrga o’tib bizgacha yetib kelgan. Sodirxon Hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Matyoqub Xarratov kabi taniqli san’at ustalari kasbiy musiqani chuqur va mukammal o‘rganganlar, xalq orasida keng targ‘ib qilganlar va shogirdlariga o‘rgatganlar.

XX asrning birinchi yarmida folklor musiqa madaniyati musiqashunos olimlar, folklorshunoslar tomonidan o‘rganib chiqildi. Respublikamizning turli chekkalariga folklor ekspeditsiyalari uyushtirilib xalq og’zaki merosi yig’ildi, notaga tushirildi va nashr yuzini ko‘rdi. Bunday sa’y harakatlar Viktor Uspenskiy, Elena Romanovskaya, Yunus Rajabiy, Ilyos Akbarov va boshqa olimlar va bastakorlar tomonidan amalga oshirildi. Bu borada yana shuni aytishimiz joizki, ko‘plab O‘zbekistonda ijod qilgan kompozitorlar, jumladan, Georgiy Mushel, Aleksey Kozlovskiy, Viktor Uspenskiy, Reyngold Glier, Boris Gienko va boshqalar bir qator o‘zbek xalq ko‘larini qayta ishlab, oz asarlarida qo‘llaganlar. Misol tariqasida R.Glierning “Farg’ona bayrami” uvertyurasidan o‘rin egallagan “Andijon samosi”, “Qora soch”, “Chamanda gul” kabi

kuy va qo'shiqlarni aytishimiz mumkin.¹ Umuman olganda, folklor musiqasi kasbiy musiqaga poydevor qo'ygan. Kasbiy musiqa esa kompozitorlik va bastakorlik ijodiyotini shakllanishiga asos bo'lgan. Hozirgi davr kompozitorlari kompozitorlar asarlarida ham xalq musiqasi, qo'shiqlari, bir so'z bilan aytganda folklor namunalarini uchratishimiz mumkin. Bu bejiz emas, chunki har bir xalq milliy madaniyati, marosimlari, kuy-ohanglarini qadrlaydi. Bu ohanglarning professional ijodiyotga qo'llanilishi esa kompozitorni xalqqa yaqinlashtiradi.

Bugungi kunda ham xalq folklor ijodiyoti hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosni asrab avaylash, uni tatixiy mohiyati va ahamiyatini yo'qotmagan holda kelajak avlodga yetkazish, xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini keng targ'ib etish yo'lida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli hamda 2018 yil 22 noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi 946-sonli qarorlari bu boradagi ishlarni tizimli asosda tashkil etishda muhim omil bo'lmoqda. Nomoddiy madaniy merosni asrash va targ'ib etish borasida tegishli davlat, jamoat va xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligida qator loyihalar, ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. 1993 yilda O'zbekistonning BMT qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotga – Yunesko'ga qo'shilishi samarasi o'laroq O'zbekistondan 4 me'moriy majmua va nomoddiy madaniy merosning 5 ta obyekti Yunesko ro'yxatiga kiritildi. Ular orasida Surxondaryoda an'anaga aylangan "Boysun bahori" folklor etnografik festivali ham o'rin olgan edi; respublikamizning barcha hududlarida folklor qo'shiqchiligi va ijrochiligiga oid madaniy-ma'rifiy tadbirlarning tashkil etilayotganligi hech kimga sir emas.² Qolaversa, milliy o'zligimizni anglashga yo'naltirilgan, bolalar ongiga kichikligidan xalq musiqa merosini singdirishga qaratilgan davlat dasturlari orasida bolalar bog'chasi va maktablarda xalq musiqa merosini o'rgatish ishlari boshlab yuborilganligi diqqatga sazovordir.

Ko'pgina kuy va qo'shiqlar qayta hayotga tadbqiq etilmoqda. Bunga biz har yili o'tkaziladigan Navro'z umumxalq bayramida yangraydigan kuy va qo'shiqlarimizni, yalla va laparlarimizni, xalq ijodiyoti namunalarini misol keltirishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda milliy estrada san'atida ham folklor musiqasi keng qo'llanib kelinmoqda. Mahmud Namozov, Ravshan Namozov, Sayyora Qoziyeva, Hosila Rahimova, "Surxon" guruhi va boshqa estrada namoyondalari ijodida folklor musiqasi keng namoyon bo'lgan.

¹ История узбекской советской музыки. Т. Vizgo, F. Karomatov. I tom, T., 1972 .y, II tom, T., 1973 y.

² Internet saytlar: www.lex.uz, wikipedia.uz.

Folklor va an'anaviy cholg'u ijrochilari repertuarini boyitishini, yurtimizning chekka vohalarida xalq orasida keng tarqalgan musiqani ta'lim tizimiga olib kirish, milliy qadriyatlarimizni va merosimizni yosh avlodga ustoz-shogird an'analari asosida o'rgatish, shu tariqa ularning kasbiy mahoratlarini shakllantirish va rivojlantirish biz yoshlarning oldimizga qo'yilgan asosiy vazifalardan biridir.

Foydalangan adabiyot ro'yxati

1. Узбекская народная музыка. I,II,V,IX tomlar, T. 1955 y.;
2. O'zbek musiqasi tarixi. T.Solomonova. M, "Музыка", 1954 y.;
3. История узбекской советской музыки. T.Vizgo, F.Karomatov. I tom, T., 1972 .y, II tom, T., 1973 y.;
4. Internet saytlar: www.lex.uz, vikipediya.uz.